

MAKTABGACHA TA'LIM (BOG'CHA) YOSHIDAGI BOLALAR BILAN ISHLASH.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10718227>

Urinbayeva Barchinoy

Andijon shaxar 42 davlat maktabgacha ta'lif tashkiloti direktori

Annotation

Kichik muktab yoshidagi bolani shaxs sifatida shakillanishi. Pivojlanishning ma'lum bosqichi sifatidagi ahamiyati. Kichik muktab yoshidagi bolalar emotsiyal sohasida oilaning o'ziga hosliklari. Ta'lif jarayonida emotsiyal madaniyatning(oilaning) ahamiyati.

Keywords

Emotsiya, emotsiyal barqarorlik, ta'lif samaradorligi,

Аннотация

Вопрос духовно-нравственного воспитания становится сегодня одной из важнейших и актуальных проблем. В данной статье говорится о важности формирования духовно-нравственного воспитания учащихся и его педагогическом содержании.

Ключевые слова

духовное воспитание, качество образования, воспитание в духе патриотизма, социально-нравственные требования, поведение, нравственное воспитание, нравственные нормы.

Abstract

The issue of spiritual and moral education is becoming one of the most important and urgent problems today. This article talks about the importance of forming the spiritual and moral education of students and its pedagogical content.

Keywords

spiritual education, quality of education, upbringing in the spirit of patriotism, social and moral requirements, behavior, moral education, moral norms.

O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy, iqtisodiy taraqqiyot yo'lidagi mustaqil siyosati umumiy ta'lif muktablarida yoshlarni ma'naviy - axloqiy tarbiyasini yangi davr talablari asosida yo'lda qo'yishini taqozo etmoqda. Ma'naviy - axloqiy tarbiya masalasi bugungi kunda eng muhim, dolzarb muammolardan biriga aylanmoqda. Chunki mafkuraviy tahdidlar vujudga kelayotgan bir davrda

yoshlarda mustahkam e'tiqod, ma'naviy barkamollikni tarbiyalash har qanday to'siqlarni matonat bilan yengish va yot g'oyalarga berilmaslik sifatlarini tarbiyalaydi Bunday tarbiya esa juda yoshlik yillaridan boshlab qadamba - qadam singdirilib boradi. Bu sohada boshlang'ich sinfdan boshlab olib boriladigan ishlar muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoxda. Interfaol ta'lim metodlari hozirda eng ko'p tarqalgan va barcha turdag'i ta'lim muassasalarida keng qo'llanayotgan metodlardan hisoblanadi. Shu bilan birga, interfaol ta'lim metodlarining turlari ko'p bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonining deyarlik hamma vazifalarini amalga oshirish maqsadlari uchun moslari hozirda mavjud. Amaliyatda ulardan muayyan maqsadlar uchun moslarini ajratib tegishlicha qo'llash mumkin. Bu holat hozirda interfaol ta'lim metodlarini ma'lum maqsadlarni amalga oshirish uchun to'g'ri tanlash muammosini keltirib chiqargan. Buning uchun mashg'ulot jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarining qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishslash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash va ta'lim oluvchilarini amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi. Interfaol metodlar asosida ta'limni tashkil etishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Bolani maktab ta'limiga tayyorlashda aqliy tarbiyaning ahamiyati kattadir. Bolani bilimlarini egallab olishlari ularni aqliy faolligini rivojlantirish aqliy malaka va ko'nikmalarini egallab olishlari ularni mакtabda muvaffaqqiyatli o'qishlari uchun bo'lajak mehnat faoliyatiga tayyorlanishida manba bo'lib xizmat qiladi. Odamning aqliy faoliyati - bu umumiy ham maxsus aqliy harakatlar xilma-xil sistemalarining katta miqdoridir. Ko'pgina vazifalarni hal etishda qo'llaniladigan keng ko'lmandagi aqliy harakatlarni shakllantirish ayniqsa, muhimdir. Bunday harakatlarga tahlil, qiyoslash, umumlashtirish kiradi. Ham umumiy, ham maxsus aqliy harakatlarni egallah aqliy faollik va mustaqillikning rivojlanishini ta'minlaydi. Aqliy faoliyatning moslashuvchanligi va jo'shqinligini, hodisalarini xilmaxil aloqalar va munosabatlarda ko'ra bilishni shakllantirishga yordam beradi. «Aqliy mehnat madaniyati» tushunchasiga aqliy faoliyatning umumiy tartibliligi, rejailigi, vazifani qabul qilish va o'rtaqa qo'yish, uni hal etish usullarini tanlash,

ishlab chiqilgan harakat rejasini izchil amalga oshirish natijalarini baholash mahorati kiradi.

Aqliy mehnat madaniyati aqliy faoliyatning maxsus malakalari va ko'nikmalarini, kitob bilan ishlash ko'nikmalarini egallash darajasi, ilmiy bilish usullari va metodlarini, turli yordamchi vositalardan foydalanish bilan ham bog'liqdir. Aqliy tarbiya vazifalaridan har biri maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashni tashkil etishda hisobga olish lozim bo'lgan bir qancha vazifalarni o'z ichiga oladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy tarbiyalashning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat. Boladagi qiziquvchanlik va aqliy faollikning qay darajada rivojlanganligini bolaning aqliy ko'rsatkichining yuqoriligidagi ko'rish mumkin.

Interfaol metodlar bolalar qobiliyati, imkoniyati va ehtiyojlarini hisobga olgan holda, ta'lif shakllarini amalga oshirish uchun ko'zlangan natijaga erishishda eng qulay yo'l va usullarni tanlash va ishlab chiqish mahorati ekan, u haqiqatdan ham ta'lif jarayoni unumdorligini oshiradi, bolalarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, bolalarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi. Ta'lifning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir mashg'ulotning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. An'anaviy mashg'ulot shaklini saqlab qolgan holda uni ta'lif oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta'lif oluvchilarning o'zlashtirish darajasi o'sishiga olib keladi.



Interfaol metod biror faoliyat yoki muammoni o'zaro muloqotda, o'zaro bahsmunozarada fikrlash asnosida, hamjixdtlik bilan hal etishdir. Bu usulning afzalligi shundaki, butun faoliyat o'quvchi-talabani mustaqil fikrlashga o'rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi.

O'qitishning interfaol usullarini tanlashda ta'lismi maqsadi, ta'lismi oluvchilarining soni va imkoniyatlari, o'quv tashkilotining o'quv-moddiy sharoiti, ta'limning davomiyligi, o'qituvchining pedagogik mahorati va boshqalar e'tiborga olinadi. Interfaol metodlar deganda - ta'lismi oluvchilarini faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lismi jarayonining markazida ta'lismi oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lismi beruvchi ta'lismi oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lismi oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta'lismi oluvchi markazda bo'lgan yondashuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ta'lismi samarasini yuqoriqbo'lgan o'qish-o'rganish;
- ta'lismi oluvchining yuqori darajada rag'batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimlarning ham e'tiborga olinishi;
- ta'lismi jarayoni ta'lismi oluvchining maqsad va extiyojlariga muvofiqlashtirilishi;
- ta'lismi oluvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o'rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

Interfaol metodlarga asoslangan ta'lismi jarayonida pedagog faoliyati va bola faoliyati doirasi aniq belgilanadi, ta'lismi tashkil etishning aniq texnologiyasi ko`rsatiladi. Bolaning ongi va tafakkuri endi shakllanib kelayotgan maktabgacha yoshda pedagogning mahorati, uni innovatsion pedagogik texnologiyalarni ta'lismi jarayoniga mohirona tadbiq eta olishi, ta'limning yangi-yangi yo`l va usullarini izlashi, pedagogik tajribalardan ijodiy foydalana olishi juda muhimdir. Shuning uchun ham bo'lajak maktabgacha ta'lismi yo`nalishi tarbiyachilarini kelgusi faoliyatga tayyorlashda, interfaol metodlarni amaliyatga tatbiq etishga tayyorlash bugungi ta'limning oldiga qo'yilgan talablardan biridir. Chunki interfaol metodlar, birinchidan, bolalarni bilim, ko`nikma va malakalarini oson va qiziqib o'rganishlari uchun imkoniyat yaratsa, ikkinchidan, o'qituvchining ham professional o'sishiga, ham ma'naviy rivojlanishiga yordam beradi.

Bugungi kunda ta'lismi-tarbiya tizimining bosh maqsadi xar tomonlama yetuk barkamol shaxsni tarbiyalashdir. Maktabgacha ta'lismi tashkilotida barkamol avlodni tarbiyalash va ta'lismi-tarbiya berishda mashg'ulot yetakchi o'rinni egalaydi.

Tarbiyachi bolalarga ta'lim berishni kun davomida amalga oshiradi: ularning bilimlarini boyitadi, madaniy, gigenik, xulq madaniyati, gaplashish nutqi, sanoq-hisob harakatlari kabi turli tuman malaka va ko'nikmalarini shakllantirib boradi. Ammo ta'lim berishda bosh rolni mashg'ulot egalaydi. Ta'limiy o'yin mashg'ulotlari orqali bolalar o'z atroflaridagi predmetlar, hodisalar haqidagi ma'lumotlarni yaxshi o'zlashtirib oladilar.

Mashg'ulotlar davomida ta'limiy o'yinlardan foydalanish bolalarni axloqiy tomondan tarbiyalashda ma'lum bir ahamiyatga ega. Ularda sekin- astalik bilan tengdoshlari o'rtasida faoliyat ko'rsatish, ta'sir o'tkazish malakalari hosil bo'lib boradi. Avval boshqa bolalarning yonida ularga xalaqit bermasdan, o'yinchoqlarini tortib olmasdan, o'zi ham boshqa narsalarga chalg'imasdan nimadir qilishni o'rganadi. So'ngra boshqa bolalar bilan birgalikda (hamkorlikda) faoliyat ko'rsatishga o'rganadi: o'yinchoqlarni, suratlarni, hayvonlarni birga ko'radilar, birgalikda raqsga tushadilar, yura- dilar va hokazo. Shuni yaxshi esda tutish kerakki, mashg'ulotlar bolalarda yaxshi kayfiyatni vujudga keltirishi lozim. Bolalarda mashg'ulot vaqtida vujudga kelgan yaxshi kayfiyat, quvnoqlik histuyg'ulari bolaning ilk yoshdagi davrida nutqning muvaffaqiyatli rivojlanishiga zamin bo'lib, kelgusida tarbiyachi uchun katta ahamiyat kasb etadi.

Ma'naviy - axloqiy tarbiyaning maqsadi, mazmuni jamiyat talablari asosida o'zgarib boradi. Mavjud ta'lim jarayonini har tomonlama takomillashtirmasdan turib, bu jarayonlarni ijobiy hal etib bo'lmaydi. Chunki ma'naviyatimizda sodir bo'lgan kamchiliklarni bartaraf etish ko'p jihatdan ta'lim tizimining maqsadga muvofiq tarzda bo'lishiga bevosita bog'liqdir. Yoshlar tafakkurini o'stirish, berilayotgan axborotni qabul qilgan zahotiyoy uni qayta ishlab chiqib, tegishli xulosalar chiqarish bilan bog'liq holatlarga erishish hamda zarur ko'nikmalarni shakllantirish shu kunning dolzarb vazifalaridan biri bo'lib turibdi.

Ta'limiy o'yinlardan foydalanishda quyidagi qoidalarga amal qilinishi kerak:

1. Navbatma-navbat ta'sir etish.
2. So'ralganda javob berish.
3. O'rtoqlari fikrini eshita olish.
4. O'yin jarayonida boshqalarga xalaqit bermaslik.
5. O'yin qoidasini bajarish.
6. O'z xatosini tan olish.

Ta'limiy o'yinlarning muhim elementi qoidalalar hisoblanadi. Qoidalarni bajarish o'yin mazmunini amalga oshirishni ta'minlaydi. Ta'limiy o'yin ta'lim bilan bevosita bog'liq bo'lib, unga yordam beradi.

Ta`limiy o`yin - bu maktabgacha yoshdagи bolalarning yosh va imkoniyatlariga mos keladigan ta`lim berish metodidir.

Tajribali tarbiyachi bu o`yindan passiv bolalarni jamoaga aralashtirish, har xil rejalar, vazifalarni qo`rmasdan bajarishlari uchun foydalanadi.

Ta`limiy o`yinni amalga oshirishda har doim g`oyaviylik prinsipiiga asoslanish kerak. Ta`limiy o`yin tarbiyachining vazifa hamda maqsadlariga muofiq kelishi lozim.

Ta`limiy o`yinlar bolalarning birgalikda o`ynab, o`z manfaatlarni jamoa manfaatlari bilan uyg`unlashtira olishi, bir-biriga ko`maqlashish va o`rtog`ining muvaffaqiyatidan xursand bo`lishi kabi yaxshi munosabatlarning tarkib topishiga yordam beradi. O`yinlar shaxsnинг sofkillik, rostgo`ylik kabi ijobjiy xislatlari shakllanishiga imkon beradi.

Ta`limiy o`yin bolalarning amaliy faoliyati hisoblanadi, chunki unda bolalar mashg`ulotlarda olgan bilimlaridan foydalanadilar. SHu nuqtai nazardan qaraganda, olgan bilimlaridan har xil usulda foydalanishlari uchun hayotiy sharoit yaratib beradi.

Ta`limiy o`yinlar bolalarning tevarak-atrof haqidagi bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi, o`z shaxsiy tajribalari va mashg`ulotlarda olgan bilimlarni amalda qo`llay olishga o`rganadi, ulardagи fikrlash qobiliyatlarini, ijodiy kuchlarni, sensor jarayonni rivojlantiradi, olgan bilimlarni tartibga soladi.

Bo`lajak tarbiyachi anglashi va uni chuqur o`zlashtirishi zarur bo`lgan masalalardan biri ma`naviy-axloqiy tarbiya mazmunida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tiklash masalasining kun tartibiga qo`yish zaruriyatining yuzaga kelganligi munosabati bilan ta`lim-tarbiya mazmunida tub o`zgarishlar yuz bergenligidir. Ma`naviy-axloqiy tarbiyada yana bir eng qimmatli qadriyat erkinlikdir. Ta`limni demokratlashtirish bilan birga shaxs erki va huquqini hurmat qilish rivojlanadi.

Bu esa o`z navbatida o`quvchi shaxsida mas`uliyatni his etish, ongli intizomga rioya etish ko`nikmalarini tarbiyalaydi. Shuningdek, vatanparvarlik, insonparvarlik, yuksak axloq, mehnatsevarlik, xalqlar o`rtasida do`stlik va hamkorlik, mas`uliyatni his etish, burch, or-nomus, vijdonlilik, tartiblilik, adolatlilik va boshqa xislatlar tarbiyasi katta ahamiyatga ega.

Ma`naviy-axloqiy tarbiya mohiyatiga ko`ra inson ongining jamiyat bilan aloqadorligi, jamiyat oldida burchli ekanligi, o`z xulq-atvorini jamiyat taraqqiyoti darajasiga bog`liqligini tushunishi, jamiyat tomonidan tan olingan axloqiy me`yor, ideal hamda talablarni bajarishda mas`uliyatni his etishi, ma`naviy-axloqiy bilimlarning e`tiqodga aylanishi va bu e`tiqodlarning tizimliligi, mustahkam

ma'naviy-axloqiy his-tuyg'u va xislatlarni shakllantirish, o'quvchilar tomonidan ma'naviy-axloqiy xulq-atvor jamiyat a'zolariga bo'lgan hurmat-e'tiborni namoyon etuvchi mezonlardan ekanligining anglab yetilishi, ma'naviy-axloqiy odatlarning shakllanishi va boshqalardan iborat.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etishda o'quvchilar xatti-harakatlarida ko'zga tashlanadigan salbiy odatlar - jamoa joylarida qattiq gapirish, qo'pol so'zlarni ishlatish, hissiyotga berilish, o'ylamay gapirish, ishonchli bo'lman hamda dalillar bilan tasdiqlanmagan voqeа-hodisalar haqida fikr yuritish, boshqalarning suhbatini bo'lish, qo'lini silkitib gapirish kabilarning bartaraf etib borilishiga alohida e'tibor qaratish zarur.

Buning uchun u ma'naviy - axloqiy tarbiya vazifalarini aniq tasavvur qilishi lozim.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya vazifalari quyidagilardan iborat:

- ❖ O'quvchilarda ma'naviy-axloqiy ongni shakllantirish.
- ❖ Ularda ma'naviy-axloqiy his-tuyg'ularni tarbiyalash va rivojlantirish.
- ❖ O'quvchilarda ma'naviy-axloqiy xulq-atvor ko'nikma va odatlarini tarkib toptirish.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim muassasasida o'quvchilarga qadriyat sifatida munosabatda bo'lish ham dolzarb ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Zero, ta'lim tamoyillarida eng muhim, asosiy tamoyillardan biri ta'limni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish bo'lib, uning asosiy mohiyati o'quvchi shaxsiga insoniy munosabatda bo'lishni, ta'lim jarayonini erkinlashtirishni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Azizzodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: Moliya, 2003. – 192 b.
2. Abduvaliyeva M.I. Kasb-hunar kolleji o'quvchilarning kasbiy moslashuvini shakllantirish va rivojlantirish: Ped.fanl.nomz. ... diss. – T.: 2008. –134 b.
3. Azizzodjayeva N.N. Tarbiyachi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2000. – 52 b.
4. Tolipov O'.Q. Oliy pedagogik ta'lim tizimida umummehnat va kasbiy ko'nikma hamda malakalarni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari / Monografiya. – T.: Fan, 2004.B -73-80.